

IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI AZART O‘YINLARING RIVOJLANISH TARIXI

Xolliev Abdulxamid Urmanovich

Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada internetning hamda ijtimoiy tarmoqlarda ommalashib borayotgan azart (qimor) o‘yinlarning kelib chiqishi, rivojlanish tarixi va qonunchilikda belgilangan javobgarliklar to‘g‘risida ma’lumotlarlar keltirilgan.

***Kalit so‘zlar.** Internet, “Karib” mojarosi, ijtimoiy tarmog‘, azart (qimor) o‘yin, sport, psixalogiya, javobgarlik.*

ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ АЗАРТНЫХ ИГРЫ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация о происхождении, истории развития и юридической ответственности азартных игр в Интернете и социальных сетях.

***Ключевые слова.** Интернет, «Карибский» скандал, социальная сеть, азартные игры, спорт, психология, ответственность.*

Insonning qimorga intilishi qadim zamonlarga borib taqaladi. Insoniyat tarixida kimdir qandaydir oson yo‘l bilan qandaydir boylikni qo‘lga kiritishga uringani borasida son-sanoqsiz misollar topish mumkin. Qimor o‘yinlari tarixi insoniyat tarixida chuqur ildiz otgan. Qadimga Misr qazilmalarida hozirgi qimor suyaklariga o‘xshash narsalar bir necha marta topilgan.

Ularning eng qadimgilari eramizdan avvalgi 3500-yillarga mansubdir. O‘shandan beri, qimor o‘yinlari biznesi oldinga qarab katta qadam qo‘ydi, yildan-yilga tez boyib ketishni istaydiganlarni o‘z qatoriga qo‘shib bordi.

Oxirgi yillarda bir o‘yin tizimining o‘rnini boshqa bir o‘yin tizimi egallab borayotganini ko‘rish mumkin. O‘yin avtomatlari joylashgan binolarni yopish haqida qaror chiqishi bilan ularning o‘rnini yangi texnologiyalar egallayapti.

Biroq hamma odamlar ham bu dardga muhtalo bo‘lmagan, aholining katta qismi ko‘ngilocharliklarning bu turi ortida qanday yovuzlik yashiringanini biladi va undan o‘zini olib qochishga harakat qiladi. Lekin shunga qaramay, jon-jahdi bilan va tez qiziqib ketadigan o‘yinchilar kam sonli bo‘lsada, bu ish bilan bog‘liq bo‘lmagan o‘z yaqinlariga ko‘plab muammolar tug‘diradi. Ushbu maqolada mukkasidan ketgan o‘yinchilar psixologiyasini ochib berish va shu tariqa o‘ta salbiy hodisalarning oldini olish va bunday odamlarga yordam ko‘rsatish usullarini aniqlashga harakat qilib ko‘riladi.

Zamonaviy addiktologiyada (asosan turli qaramliklar masalalarini o‘rganadigan ilmiy fan) insoning o‘yinlarga muteligini o‘rganishga muhim e‘tibor qaratiladi. Bu baloga qarshi kurashda asosiy muammo shu bilan izohlanadiki, o‘yinlar biznesi sanoatining keskin rivojlanishi sababli oxirgi paytga kelib bu muammo olimlar e‘tiborini jalb qilmoqda. Bungacha ushbu holatga etarlicha e‘tibor qaratilmagan, chunki o‘yinga qaramlik kam sonli xarakterga ega bo‘lgan.

Ushbu muammoga doir maxsus adabiyotlarni tahlil qilishda qiziq bir narsa ma‘lum bo‘di. Barcha mutaxassislar, psixologlar ham, psixiatrlar ham shu borada yakdil bir fikr bildiradiki, o‘yinlarga mutelik (maxsus adabiyotlarda – «ludomaniya» va «gembling») ichki tabiati bo‘yicha giyohvandlik va surunkali alkogolizm kasalliklariga tenglashtiriladi. Muayyan holatlarda o‘yinlarga mutelikni davolashda psixofarmakologiya vositalariga murojaat qilinadi va bemor statsionar davolash uchun psixiatriya dispanseriga joylashtiriladi.

Uammo shunda haki, o'ning ahvoli qanchalik og'ir ekanligini o'yinchining o'zi baholay olmaydi, o'zini mutlaqo sog'lomman va o'zimni-o'zim nazorat qila olaman deb o'ylaydi. Bu fikrlar bilan u davolanish yo'llarini yopadi va yildan-yilga tanazzulga yuz tutib boradi. SHu sababdan asosiy e'tiborni shunga qaratish kerakki, qimor o'yinlariga ortiqcha qiziqish namoyon etadigan muayyan kishilarga bu muammo osonlik bilan bartaraf qilish mumkin bo'lgan oddiy bir qiziqish emas, balki kasallik xarakteriga ega ekanligini etkazish lozim.

O'yinlarga mutelik xavfi nafqat individual, balki ijtimoiy xarakterga ham ega bo'lishi mumkin. Bu o'yinchi juda katta miqdorda pul yutqazib, oilasini ham o'sib borayotgan qarz botqog'iga botqizgan holalarda kuzatiladi. Qoidaga ko'ra, bunday odamlarni na ularning doimo yutqazishi, na oilasi jiddiy moliyaviy qiyinchiliklar his qilayotgani to'xtata olmaydi. Ko'pincha o'yin uchun pul topish maqsadida o'yinchi qonunlarni buzadi va jinoyat sodir etadi.

Ushbu muammo bilan shug'ullanuvchi etakchi mutaxassislar fikriga ko'ra, o'yinlarga patologik bog'lanib qolganlik quyidagi sabablarga ko'ra o'ta dolzarb ahamiyatga ega bo'ladi:

Jiddiy ijtimoiy va moliyaviy muammolar mavjudligi. Xususan, o'rtachalashtirilgan ma'lumotlarga ko'ra, patologik o'yinchilar orasida: 23 foizi jiddiy moliyaviy qiyinchiliklar his qiladi;

35 foizi ajrashib ketgan, 80 foizi oiladagi o'zaro munosabatlar borasida jiddiy muammolar mavjud.

Noqonuniy harakatlar keng tarqalgan: o'yinchilarning 60 foizi jinoiy ishlar bo'yicha jalb qilingan.

O'z joniga qasd qilish ehtimoli riski yuqori: patologik o'yinchilarning 13 foizdan 40 foizgacha bo'lgan qismi o'z joniga qasd qilishga urinib ko'radi;

32–70 foizi (turli baholarga ko'ra) o'z joniga qasd qilish haqida o'ylaydi. Ma'lumotlar V.D. Mendelevichning «Addiktologiya bo'yicha qo'llanma» kitobidan olingan.

Raqamlarning o‘zi hamma narsani aytib turibdi. Agar vaqtida chora ko‘rilmasa, bu muammo ertami-kechmi, bilvosita bo‘lsada, har birimizga daxl qiladi. Nima bo‘lganda ham bu muammo ijtimoiy xarakterga ega. Umuman olganda, jamiyat ushbu hodisning salbiy xarakterga ega ekanligini biladi, shu asosida bu faoliyat sohasini taqiqlaydigan yoki cheklaydigan qarorlar qabul qilinadi²⁷.

Gardkamchilikka asoslangan o‘yinlarni anglatuvchi arabcha “qimor” so‘ziga (“maysir” atamasi ham shu ma’noda ishlatiladi) bir nechta ta’riflar berilgan. Abu Ubayd: “Xatarli ushbu o‘yinda qaysi guruh boshqalarning mulki(mablag‘i)ni olib ketishi ma’lum bo‘lmaydi²⁸” degan. Al-Baliy esa: “G‘olib mag‘lubning mulkini oladigan har qanday o‘yin shunday deb ataladi²⁹” deydi. SHunday qilib, **“qimor” – ishtirokchilar o‘rtasida bellashuv va raqobat, xatarga asoslangan munosabat bo‘lib, unda g‘olibning mukofoti mag‘lubning mulki evaziga paydo bo‘ladi.**

Qimor o‘yinlaridan qanday manfaat topish mumkin?

inson shaxsiyatini namoyon qilish, bahsda yutib chiqish orqali o‘z kibru-havosini qanoatlantirish, o‘yin-kulgu, xursandchilik, sayru-tomosha, bellashuvga bo‘lgan ishtiyoqlarini qondirish;

mag‘lubning mulkini yutib olish imkoniyati;

shuhrat qozonish imkoniyati;

tashkilotchilar uchun daromad (tashkilotchi jamoat tashkiloti yoki xususiy shaxs bo‘lishi mumkin);

kambag‘allar uchun daromad (xayriya lotereyalari o‘tkazilgan taqdirda);

davlat xazinasiga tushumlar (qimorxonaga egalari, tashkilotchilar va g‘oliblar olgan foydadan yig‘ilgan soliqlar hisobiga).

²⁷ <https://islamonline.uz>. 2022 йил. 6 октябрь соат 17.33

²⁸ Абу Убайд.”Ал-амвал”. 592-б.

²⁹ Ал-Балий “Ал-муталлий ала абваб ал-муқний” 256-б.

Qimor o'yinlarining zarari

halol mexnat qilmasdan tasodifiy omad hisobiga pul topish odatining shakllanishi;

dangasalikka ko'nikish;

o'rganib qolish, ya'ni xuddi xamr yoki giyohvand moddalar singari qimor o'yinlari insonni qamrab oladi va asta sekin o'z domiga torta boshlaydi. Ba'zan mana shunday mayl haddan ziyod o'rganishga, ya'ni berilib ketishga olib boradi – o'z butlariga sodiqlardagina shunday bo'ladi.

Aynan shu sabablarga ko'ra, qimor o'yinlari Alloh taolo tomonidan Qur'oni karimda xamr, butlar va fol cho'plari bilan bir qatorda yodga olinadi.

“Ey imyon keltirganlar! Albatta, xamr, qimor, butlar va (fol ochadigan) cho'plar iflostdir. Shaytonning ishidir. Bas, undan chetda bo'ling. Shoyadki, najot topsangiz. Albatta, shayton xamr va qimor tufayli oralaringizga adovat va yomon ko'rishlikni solishni hamda sizlarni Allohning zikridan va namozdan to'sishni xohlaydi. Endi to'xtarsizlar?!” (Moida surasi, 90-91 oyatlar)

Inson yutqazishi bilan unda qayta o'ynash, o'zi uchun “Qasos” olish, obro'sini saqlab qolish va yutqazgan pullarni qaytarib olish fikri paydo bo'ladi. Agar yutib olsa, o'yinni yana davom ettirish, g'alabadan shavqlanish, o'zidan g'ururlanish, unda yanada ko'proq shuhrat va pul topishni istagi paydo bo'ladi;

o'yin so'kinish, uyat so'zlar aytish, nomaqbul gaplar bilan bo'ladi. YUrak iltifotsiz bo'lib qoladi, kishi namozdan, diniy va maishiy majburiyatlardan chalg'iydi (xususan, oila va bolalar oldidagi majburiyatlarga bee'tiborlik qilishni boshlaydi);

qimor o'yinlari – iqtisodiy faoliyat emas, bunda jamiyat boyimaydi, pullar bir qo'ldan ikkinchisiga o'tadi, xolos;

qimor o'yinlari oilalarning buzilishiga, insonlarni jinoyatga etaklaydi(o'g'rilik, o'z-o'zini o'ldirish, amaldorlarga pora berishga, ularni esa pora hisobidan yashashga o'rgatadi;

lotereya o'ynaydiganlarning aksariyati aholining kambag'al qatlamiga taalluqli bo'ladi;

yutganlar juda kam, yutqazganlar esa juda ko'p bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki ijtimoiy tarmoqlardagi azart o'yinlar o'ynayotgan yoshlar, harbiy xizmatchilar yoki boshqa bir kasbda faoliyat olib borayotgan insonlar o'zlari bilmagan xolda azart o'yinlarga bog'lanib qolishi va uning domidan chiqish imkoniyatlari ozligi ma'lum bo'lmoqda³⁰.

1680-yilda AQSH lari Virjiniya shtatida axolining yuqori sinf qatlami orasida ot poygalariga pul tikish evaziga qimor o'yini paydo bo'lgan.

Ispaniya va Germaniyada rassomlar tomonidan 1423-yilda yog'och va misga o'ymakorlik san'ati ixtiro qilinishi bilan kartochkalar yasala boshlandi, ular dastlab fol ochish uchun xizmat qilgan, keyin esa fol ochishga asoslangan o'yinlar, ya'ni tasodifiy (qimor) o'yinlar vositasiga aylangan.

Qimor uylari egalarini ta'qib qilish to'g'risidagi birinchi qonun 1541 yilda Angliyada qabul qilingan.

Fransiyada ushbu qimor o'yinlarning gullab-yashnagan davri XIII va XIV asrlar bo'lib, o'sha davrda (hozirgacha ko'pchilik qimor o'yinlari frantsuzcha nomlarini saqlab qolgan) qimor o'yinlar zodagonlarning sevimli mashg'ulotiga aylangan.

17-asrda Rossiyada tasodifiy (qimor) o'yinlar mavjud bo'lib, ular karta va don o'yinlari bo'lgan, bu o'yinlar hukumat tomonidan ta'qib qilingan va bu gubernatorlarga buni nazorat qilishni buyurilgan.

Pyotr I davrida harbiylarga pul evaziga karta o'ynash yoki zar o'ynash qat'iy man etilgan (Harbiy Nizomning 59-moddasi; Dengiz qoidalari, IV kitob, I bob, 15, 19-bandlar), keyin esa bunday taqiq uzaytirildi. har kimga: o'yinda qo'lga kiritilgan pulning uch baravar jarima tahdidi ostida pul o'ynash har kimga taqiqlangan (1717 yil 17 (28) dekabrda 3127-sonli qaror)³¹.

³⁰ <https://islommoliyasi.uz/uz/qimor/> 2022 йил. 7 октябр соат 16.21

³¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Азартная_игра. 2022 йил. 11 ноябр соат 17.21

Xristian cherkovi qimor o'yinlariga salbiy munosabatda bo'lib, bunday o'yinlar cherkov tomonidan tasdiqlanmagan va salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan tez asossiz foyda olish ishtiyoqini uyg'otadi, deb ta'kidlaydi. Qimor o'yinlariga bo'lgan ishtiyoq pravoslavlikda ham, katoliklikda ham ruhoniylar darajasidan otilish sababidir; va pravoslavlikda oddiy odamni chiqarib yuborish sababi. Bu muqaddas havoriylarning 42-qoidasi:

Ijtimoiy tarmoqlardagi azart o'yinlar barchasi internet orqali amalga oshirilishi hammamizga ma'lum. Bugungi kunda internet ommaviy axborot va kommunikatsiya tizimining eng tez rivojlanib borayotgan bo'g'ini hisoblanadi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog'i, balki uyali telefon orqali ham foydalanish mumkin. Bu internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotganligini ko'rsatadi.

Internetning kelib chiqish tarixi.

Internet - bu jahon kompyuter tarmoqlari majmuidir. Internet kupgina imkoniyatlarga ega. 1960 - yillari "Karib" mojarosidan so'ng, AQSHning ilmiy markazlaridan biri bo'lgan "**RAND CORPORATION**" korxonasi, birinchi marta butun mamlakatni qamrab oladigan markazlashmagan kompyuter tarmog'ini yaratishni taklif qildi. Bu loyixani amalga oshirishdan maqsad xarbiy muassasalar, ilmiy va o'quv markazlari kompyuterlarini bir tarmoqqa birlashtirishni markazlashtirish edi. Maqsad yadro quroli hujumida ham, tarmoqning bir necha qismi ishdan chiqqan xolda ham ishlash faoliyatini saqlab qoladigan sistemani yaratish edi. Bunday sistemani tarmoqlar soni ko'p bo'lgandagina amalga oshirsa bo'lar edi. Shunday qilib, Internet asos solindi.

XX asrning 70-yillari boshlarida AQSH Mudofaa Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "ARPANET" aloqa tarmog'i asos bo'lgan. "ARPANET" — buzilgan aloqa bo'g'inlarni avtomatik ravishda aylanib o'tishga va tarmoqdagi kompyuterlarning ma'lumot almashishiga imkon yaratuvchi kommunikatsiyalar paketidir. "ARPANET" tarmog'i birinchi marta ishga tushirilganda 4 ta kompyuter orasida maxsus kabel orqali bor-yo'g'i 2 minut davomida axborot almashinilgan.

Boshida olimlarning tadqiqot ishlarida foydalanilgan tarmoq, keyinchalik ularning safsata sotishning kompyuterlashgan zanjiriga aylandi. Ammo shunday tarmoq yaratishning o'zi katta muvaffiqiyat edi. 1970 - yillarda tarmoq ancha o'sdi. Endi tarmoqning tuzilishi unga xoxlagan kompyuterni ulash imkoniyatini beradi. Keyinchalik 1974 - yilda tarmoqlarni birlashtiruvchi TCP/IP protokoli tuzildi va tarmoqning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Chunki tarmoqqa ixtiyoriy kompyuterni ulash imkoniyati paydo bo'ldi. **1983 - yilda “ARPANET”, “INTERNET”** deb atala boshlandi va u juda kuchli, bir - biri bilan bog'langan kompyuterlar va tarmoqlar to'plamidan iborat sistemaga aylandi. 1980 - yillar “INTERNET” ning keskin ush davri bo'ldi. Kompyuterlarning markazlashmagan boshqarish tarmog'i bilan bog'lanish sxemasi butun dunyoga tarqaldi va chet el tarmoqlari tashkilotchilari AQSH tarmog'iga ulanishga rozi bo'lishdi.

1987 - yili Internetga ulangan kompyuterlar soni 10 000 ta bo'lsa, 1989 - yili 100 000 taga etdi³².

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar uchun qonunchilikda belgilangan javobgarliklar.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 111-moddasida: Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish ularning o'limiga yoxud mayib bo'lishiga olib kelsa, huddi shuningdek hayvonlarni qiynash, bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, mazkur Kodeksning 191-moddasida: Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etish — ana shu o'yinlar buyumlarini, shuningdek o'yinga tikilgan hamda o'yindagi yutuq bo'lgan pullar, ashyolar va boshqa qimmatbaho buyumlarni musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi.

³² <https://myblog.uz> 2021/07/20 “Интернет нима, у қандай ишлайди” 2022 йил. 11 ноябр соат 13.00

Jinoyat kodeksining 278-moddasida: Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o‘tkazish, shu jumladan ana shunday o‘yinlar uchun qimorxonalar tashkil etish yoki ularni saqlash — etti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazoladi³³.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://islamonline.uz>. 2022 йил. 6 октябрь соат 17.33
2. АбуУбайд. "Ал-амвал". 592-б.
3. Ал-Балий "Ал-муталлий ала абваб ал-муқний" 256-б.
4. <https://islommoliyasi.uz/uz/qimor/> 2022 йил. 7 октябрь соат 16.21
5. [https://ru.wikipedia.org>wiki> Азартная игра](https://ru.wikipedia.org/wiki/Азартная_игра). 2022 йил. 11 ноябр соат 17.21
6. <https://myblog.uz.>> 2021/07/20 "Интернет нима, у қандай ишлайди" 2022 йил. 11 ноябр соат 13.00
7. [https://iiv.uz/news/qimor-va-tavakkalchilikka-asoslangan-boshqa-oyinlar-boyicha-eslatma 2023](https://iiv.uz/news/qimor-va-tavakkalchilikka-asoslangan-boshqa-oyinlar-boyicha-eslatma-2023) й 24 март.

³³ [https://iiv.uz/news/qimor-va-tavakkalchilikka-asoslangan-boshqa-oyinlar-boyicha-eslatma 2023](https://iiv.uz/news/qimor-va-tavakkalchilikka-asoslangan-boshqa-oyinlar-boyicha-eslatma-2023) й 24 март.